

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

QURBONOV SAMGIN AZAMAT O‘G‘LI

**BADIIY MATNNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI (MUROD MUHAMMAD DO‘ST ASARLARI
MISOLIDA)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Qurbonov Samgin Azamat o'g'li

Badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari (Murod Muhammad Do'st asarlari misolida) 5

Курбонов Самгин Азамат угли

Коммуникативно-прагматические особенности художественного текста (на примере творчества Мурада Мухаммада Доста) 26

Qurbonov Samgin Azamat o'g'li

Communicative and pragmatic features of artistic text (as an example of Murad Muhammad Dost's works) 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

QURBONOV SAMGIN AZAMAT O‘G‘LI

**BADIIY MATNNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI (MUROD MUHAMMAD DO‘ST ASARLARI
MISOLIDA)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.2.PhD/Fil4640 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pardayev Azamat Baxronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Abdug'ofur Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Gaziyeva Maftuna Muhammadovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ kuni soat ___⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti bosh o'quv binosi, _____. Tel.: (+99866) 240-38-49, faks (0 366) 239-11-40, (0 366) 239-12-47, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____ dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

J.D.Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

Sh.S.Mahmadiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.n., dotsent

X.Z.Xayrullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligida tilning xalq hayotida tutgan o‘rnini, nutq, madaniyat, tafakkur kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini zamonaviy mezonlar asosida tadqiq etuvchi yangicha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Voqelikda sodir bo‘layotgan hodisalar insonga bog‘liq holda yuzaga kelishi, ularning markazida shaxslar turishi ilm-fanda keng e‘tirof etilayotganligi bois tilshunoslikda lisoniy hodisalar mazmun-mohiyatini ochib berishda antroposentrik nuqtayi nazardan yondashuvning kuchayganligi ilmiy tadqiqotlarda pragmatik tahlilga ehtiyoj ortayotganligini ko‘rsatadi.

Jahon tilshunosligida keyingi yillarda ijodkorlarning so‘z qo‘llash mahorati, til birliklarining badiiy asarda turli ma‘no nozikliklarini ifodalash uchun xizmat qilishidagi pragmatik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Bu bo‘yicha salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ijodkor idiolekti, muallif va asar ishtirokchilari nutqi, badiiy matnni lingvopragmatik tahlil qilishga oid ko‘plab masalalar hali o‘z yechimini topgan emas. Shu bois dunyo tilshunosligida bu yo‘nalishdagi masalalar tahlilida antroposentrik nuqtayi nazardan yondashuv yetakchilik qilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda nutqiy faoliyatni o‘rganishda nutqning turli ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladigan kommunikatsiyaning ikki muhim vazifasi – ta’sir va o‘zaro ta’sir masalalarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil va talqin qilishga intilish sezilarli darajada kuchaydi. Zero, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Ayniqsa, semantika, sintaktika va pragmatika munosabatini aniqlash, lingvopragmatikaning nazariy va amaliy masalalariga yechim topish, uning nutq ko‘rinishlaridagi semantik qurshovi, til birliklarining matnda ma’lum pragmatik “yuk” olishi va pragmatik samarani ta’minlashga yo‘naltirilishi, bunda so‘zlovchi yoki yozuvchi kommunikativ maqsadiga bog‘liq holda nutqiy strategiya va taktikalardan foydalanishda muallif idiolektini aniqlash muhim muammolar sirasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan alohida olingan ijodkorlar asarlarini lingvopragmatik jihatdan o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва маъқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. <http://lex.uz/docs/4561730/>

haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 989-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida nisbatan yangi soha hisoblangan pragmatikaning predmetini belgilash bo‘yicha olimlarning fikrlari yakdil bo‘lmaganligi bois bu masalaga daxldor turlicha izlanishlar olib borilgan. Keyingi yillarda fanning boshqa sohalari orasida pragmatikaning tutgan o‘rni, ular bilan bog‘liq va farqli tomonlariga ma’lum darajada aniqlik kiritildi. Jumladan, rus tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid dastlabki tadqiqot N.Arutyunova tomonidan amalga oshirildi². Keyinchalik yuzaga kelgan tadqiqotlarda esa pragmatik tahlilni matn bilan uyg‘unlikda amalga oshirishga e’tibor qaratila boshlandi. Xususan, A.Baranovning tadqiqotlari matnni funksional-pragmatik paradigmda o‘rganishga³, L.Bezmenovanning nutqiy aktlarning funksional-semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashga doir⁴, V.Bogdanovning nutqiy muloqotni pragmatik va semantik yo‘nalishda o‘rganishga⁵ oid ishlari shular jumlasidandir. I.Galperinning matnga lingvistik tadqiqot obyektini sifatida yondashuvi⁶, T.A.van Deykning matn pragmatikasi muammolariga oid⁷, M.Dmitriyevaning til ekspressiv birliklarining semantik-pragmatik va uslub hosil qilish tavsifiga⁸, B.Normanning lingvistik pragmatikaga⁹ doir ishlari dastlabki fundamental tadqiqotlar sifatida soha taraqqiyotiga yo‘l ochib berdi.

O‘zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda pragmatikaning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan darslik va qo‘llanmalar¹⁰ maydonga keldi. Jumladan,

² Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1985. – Вып. XVI: Лингвистическая прагматика. – С. 3-42.

³ Баранов А.Г. Текст в функционально-прагматической парадигме. – Краснодар: Кубанский Госуниверситет, 1988. – 90 с.

⁴ Безменова Л.Э. Функционально-семантические и прагматические особенности речевых актов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2001. – 20 с.

⁵ Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1990. – 88 с.

⁶ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. – 144 с.

⁷ Дейк Т.А. ван. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1978. – Вып. VIII: Лингвистика текста. – С. 259-336.

⁸ Дмитриева М.М. Семантико-прагматические и стилообразующие характеристики экспрессивных единиц языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2000. – 16 с.

⁹ Норман Б.Ю. Лингвистическая прагматика. – Минск, 2009. – 185 с.

¹⁰ Нурмонов А., Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – № 4. – Б. 54-58.; Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий

Sh.Safarovning nutqiy mulohazaning etnosopragmatik xususiyatlariga¹¹, M. Hakimovning ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlariga, matn pragmatikasiga¹², S.Boymirzayevaning matn kategoriyalariga¹³, Z.Tohirovning pragmatik semalarning hosil bo'lishi va ularda subyektiv munosabatning yuzaga kelishiga¹⁴, D.Xudayberganovanning badiiy matnlarning antroposentrik talqiniga¹⁵, A.Pardayevning yordamchi so'zlarning pragmatik xususiyatlarini aniqlashga¹⁶, M.Qurbonovning o'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlariga¹⁷, Sh.Maxmaraimovning metaforalarning antroposentrik talqiniga¹⁸, F.Karimovning dialogik nutqning lingvopragmatik xususiyatlariga¹⁹, M.M.Gaziyevaning badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlariga²⁰ bag'ishlangan tadqiqotlari maydonga keldi. A.Mamajonov, E.Qilichev, M.Yo'ldoshev, M.Qurbonova, M.Abdupattoyev kabi tilshunolar tomonidan yaratilgan ishlarda ham til birliklarining pragmatik xususiyatlariga oid ma'lumotlar berilgan.

Bu tadqiqotlarda badiiy matnlarni lingvopragmatik jihatdan tadqiq etish, antroposentrik tamoyil va zamonaviy metodlar asosida tahlil qilish yo'llari belgilab berilgan.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari Murod Muhammad Do'st asarlari misolida shu kunga qadar monografik planda maxsus tadqiq etilmagan. Yozuvchining asarlari lingvopoetik jihatdan ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da²¹, pragmatik xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida pragmatik tahlilga tortilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat universitetining "O'zbek tili birliklarining funksional-stilistik va

энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademyashr, 2013. – 176 б.; Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд, 2015. – 123 б.

¹¹ Сафаров Ш. Этносоциопрагматика речевого общения (принципы сопоставительно-типологического описания): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Л., 1991. – 33 с.

¹² Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б.; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.

¹³ Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 49 б.

¹⁴ Тоҳиров З.Т. Ўзбек тилида прагматик семаларнинг ҳосил бўлиши ва уларда субъектив муносабатнинг юзага келиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 22 б.

¹⁵ Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.

¹⁶ Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 77 б.

¹⁷ Қурбанова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 72 б.

¹⁸ Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик таъқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 72 б.

¹⁹ Каримова Ф.С. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс... докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б.

²⁰ Gaziyeva M.M. Badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2024. – 82 b.

²¹ Ҳамидов А. Муроод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоэтикаси. Филол. фан. б. фалс... докт. ... дисс. – Термиз, 2020. – 144 б.

kognitiv-pragmatik tahlili masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini Murod Muhammad Do‘st asarlari misolida tadqiq etish orqali lingvopragmatik tamoyillarning xususiy voqelanish omillarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o‘zbek tilshunosligida tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan lingvopragmatika sohasining o‘rnini, mazmun-mundarijasini belgilash;

o‘zbek tilshunosligida badiiy matnni lingvopragmatik jihatdan tadqiq qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni tavsiflash va bu borada erishilgan yutuq va kamchiliklar, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniqlash;

badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini Murod Muhammad Do‘st asarlari misolida tadqiq etishning zarurati va bugungi ahamiyatini asoslash hamda umumiy lingvopragmatik tamoyillarning xususiy voqelanish omillarini belgilash;

Murod Muhammad Do‘st asarlarini kommunikativ-pragmatik jihatdan tadqiq etish orqali yozuvchining lisoniy birliklarni tanlash va qo‘llashdagi mahorati, o‘ziga xos individual uslubini ochib berish;

Murod Muhammad Do‘st asarlarida nutqiy aktlarning qo‘llanishidagi o‘ziga xosliklarni, dialog va monologlarning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini aniqlash;

pragmatik mazmuni kuchaytiruvchi vositalarning badiiy asarda tutgan o‘rnini Murod Muhammad Do‘st asarlari misolida tahlil qilish va bu borada muayyan xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning turli yillarda nashr qilingan kitoblariga kiritilgan “Lolazor”, “Galatepaga qaytish”, “Iste’fo”, “Mustafo”, “Bir toychoqning xuni” “Darvoza yonidagi it” kabi turli janrdagi asarlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini Murod Muhammad Do‘st asarlari asosida umumiy lingvopragmatik tamoyillarning xususiy voqelanishi va o‘zbek tili lisoniy imkoniyatlarining badiiy matnda kommunikativ-pragmatik namoyon bo‘lish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, komponent, kontekstual tahlil, semantik-stilistik, lingvopragmatik va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini Murod Muhammad Do‘st asarlari umumiy lingvopragmatik tamoyillarining kommunikativ taktika va strategiya, tagma’no, pragmatik to‘siq kabi xususiy voqelanish omillari, lisoniy ijodkorlik va tilning ifoda imkoniyatlari ochib berilgan;

badiiy matndagi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqot vaziyati bilan bog‘liq ifoda-tasvir vositalari, *istak*, *tanbeh*, *haqorat* kabi sotsiativ, *kechirim* *so‘rash*, *xushomad*, *maqto‘v*, *tabrik* kabi ekspressiv munosabatini ifodalovchi

nutqiy aklarning estetik ta'sir etish, undash, emotsional-baholash kabi turli xil pragmatik vazifa bajarish usullari aniqlangan;

Murod Muhammad Do'st asarlaridagi "qistaloq", "ahmoq", "quloq", "afyun", "eskilik sarqiti", "nomard", "yot unsur" kabi birliklarning muallif maqsadi bilan bog'liq konnotativ ma'nosi va ekspressiv ta'sirining kommunikativ-pragmatik vazifasi asoslangan;

lisoniy birliklar vositasida *maqto'v*, *ayblov*, *istak*, *tanbeh*, *qoralash*, *himoya*, *badnom qilish*, *ogohlantirish*, *ig'vo* kabi situativ-kommunikativ taktikalarning nutq vaziyatidagi variantlari, invariant strukturasiidagi mavjud ma'nolarining nutq subyekti ichki ruhiyati bilan bog'liq pragmatik mazmun-mohiyat kasb etishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi:

adib asarlarining lingvopragmatik tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar o'zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, ta'lim tizimida badiiy asar tiliga oid nazariy va amaliy mashg'ulotlarning tashkil etilishi, darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan;

pragmalingvistika sohasining tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlarini aniqlash, yozuvchi Murod Muhammad Do'st asarlarini pragmatik tahlil qilish bo'yicha olingan ilmiy xulosalar badiiy matn, ijodkorning til vositalaridan foydalanish mahorati kabi masalalarni o'rganishda amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

badiiy asarda yozuvchi va personajlar nutqining pragmatik tahliliga doir ilmiy xulosalar pragmalingvistika, matn tilshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, ushbu fanlar bo'yicha ilmiy adabiyotlar yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, badiiy matn tahliliga zamonaviy tadqiq usullarining tatbiq etilganligi, chiqarilgan xulosalarning qiyoslash, tavsiflash, komponent tahlil kabi usullar bilan asoslangani, badiiy matn tahliliga lingvopragmatik yondashuv bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy yutuqlar va ishonchli manbalarga tayanilgani, badiiy matn lingvopragmatikasini tahlil qilishda yozuvchi Murod Muhammad Do'st asarlariga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fanlararo integratsiya asosida yuzaga kelgan lingvopragmatika sohasining nazariy masalalari, xususan, yozuvchi Murod Muhammad Do'stning badiiy mahorati, asarlarining lingvopragmatik xususiyatlariga aloqador muammolarni tadqiq etish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirish va kengaytirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya materiallari va natijalaridan oliy o'quv yurtlarining bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun o'zbek uslubshunosligi bo'yicha o'quv darsliklari tuzishda, nutq madaniyati, badiiy matnning lingvistik tahlili, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi fanlarni o'qitishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin. Tadqiqotda jamlangan dalillar ma'lum bir ijodkor

asarlarning lingvopragmatik o'ziga xosligi bo'yicha yaratilajak monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini Murod Muhammad Do'st asarlari misolida tahlil qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini Murod Muhammad Do'st asarlari misolida tadqiq etish orqali umumiy lingvopragmatik tamoyillarning xususiy voqelanish omillari namoyon bo'lishiga, shuningdek, yozuvchining til vositalaridan personajlar nutqini individuallashtirishda foydalanish mahoratiga doir ilmiy xulosalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-GOO5 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zRFAQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 7-noyabrdagi 439/1-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matn individualligini ta'minlovchi lisoniy vositalar kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan;

lisoniy birliklar vositasida o'kinch, achinish, piching, kinoya, kesatiq, iltimos, yalinish, suyish, ardoqlash, ta'kid, kamsitish singari pragmatik ma'no ifodalarining nutq vaziyati bilan bog'liq variantlari, invariant strukturadagi mavjud ma'nolarining kommunikativ-pragmatik mazmun-mohiyat kasb etishiga oid xulosalardan 2016-2018-yillarda bajarilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2- CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMER raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi innovasion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 13-noyabrdagi 1079/02-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini tadqiq etish badiiy asar tili va pragmalingsvistikaga doir fanlar o'quv materiallarining mukammallashtirishga xizmat qilgan;

badiiy matndagi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro kommunikativ ta'sir va muloqot vaziyati bilan bog'liq ifoda-tasvir vositalari, ekspressiv nutqiy aktlar doirasida so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishiga doir xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan tayyorlangan "Assalom Samarqand" va "Uchqun" teleko'rsatuvlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 26-apreldagi 01-07/79-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirishga, ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Nutqiy faoliyat va badiiy matnga kommunikativ-pragmatik yondashuv”** deb nomlangan. Bobning *“O'zbek tilining lingvopragmatik nuqtayi nazardan o'rganilishi”* nomli birinchi bo'limida antroposentrik paradigma shakllanishining markaziy tushunchasi bo'lgan til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etishga yo'nalgan lingvopragmatikaning zamonaviy o'zbek tilshunosligining tadqiq qilish usuli sifatidagi tavsifi berilgan. Garchi hozirgi vaqtda “pragmatika” terminining ko'lamini belgilashda turli qarashlar mavjudligiga qaramay, pragmatika shaxs yoki shaxslar hosil qilgan, qabul qilgan va tushungan til birliklarini ularning munosabatiga ko'ra ajratuvchi va o'rganuvchi tilshunoslik aspektidir. Pragmatika foydalilik, baho, belgini tushunish kategoriyalari, shuningdek, matndagi mazkur adresatdan chiqarib olingan ma'lumot bahosi haqidagi savol muhim rol o'ynagan semantik ma'lumot tadqiqi bilan bog'liq²².

Bo'limda o'zbek tilshunosligida lingvopragmatika sohasida bajarilgan tadqiqotlar tavsiflanib, ularning ayrimlariga munosabat bildirilgan²³. Sh.Safarov: “Lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlarini, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishini va shu asnodda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi pragmalingvistikadan boshlanadi”, – deb mulohaza qiladi²⁴. O'zbek tilida matnni o'rganishga pragmatik jihatdan yondashgan M.Hakimov izlanishlarida o'zbek pragmalingvistikasining nazariy va amaliy shakllanishi, bu fanning o'zbek

²² Урумашвили Е.В. Прагматические аспекты анализа художественного текста. – Волгоград: ФГОУ ВПО «ВАГС», 2007. – С. 41.

²³ Нурмонов А., Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – №4. – Б. 54-57.; Ҳақимов М. Лингвистик прагматиканинг семантика ва стилистика билан муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000. – №2. – Б. 28.; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 318 б.; Сафаров Ш., Тоирова Г. Нуткнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 40 б.; Кўчибоев А. Матн прагматикаси. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2015. – 123 б.

²⁴ Сафаров.Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 37.

tilshunosligida tadqiq etilishi, semantika, sigmatika, sintaktika hamda pragmatikaning umumnazariy masalalari yoritilgan²⁵.

O‘zbek tilshunosligida lingvopragmatik yo‘nalishda B.Yo‘ldoshev, A.Pardayev, G.Mirsanov, M.Qurbonova, F.Karimova, N.Hamroyeva, G.Saparboyeva, S.Azimova, H.Turdiyeva, N.Qobilov, M.Umurzoqova, Sh.Yusupova, M.Xolmurodova kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni ko‘rsatish mumkin²⁶.

Lingvopragmatika so‘zlovchi va tinglovchi o‘zaro muloqotga kirishadigan kommunikativ maydonda lisoniy birliklar va aniq vaziyat hamda ularning qo‘llanishi orasidagi munosabatni o‘z obykti sifatida belgilaydi. Bunda muloqot vaziyati, nutqiy o‘zaro ta’sir sodir bo‘ladigan joy va vaqt, ishtirokchilarning maqsadi kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi bobning “*Nutqiy harakat faoliyat turi sifatida*” nomli ikkinchi bo‘limida faoliyat tushunchasiga baho berilib, insonning so‘zlashi, nutq orqali amalga oshadigan harakati, boshqalar bilan nutqiy muloqotga kirishishi faoliyatning bir ko‘rinishi sifatida ta’riflangan. Shaxs nutqiy faoliyati faoliyatning ijtimoiy-siyosiy turiga mansub bo‘lib, til vositasida amalga oshadigan aloqa eng muhimi hisoblanadi.

Faoliyat tushunchasi harakat tushunchasi bilan uyg‘un tarzda tushuniladi. Shunday ekan, insonning so‘zlashi, nutq orqali amalga oshadigan harakati ham faoliyat hisoblanadi. Chunki insonning so‘zlashi, boshqalar bilan nutqiy muloqotga kirishishi ham aynan faoliyatning bir ko‘rinishidir. Shaxs nutqiy faoliyati faoliyatning yuqorida qayd etilgan ijtimoiy-siyosiy turiga mansub bo‘lib, til vositasida amalga oshadigan aloqa eng muhimi hisoblanadi. Inson o‘zi yashab turgan voqelikni o‘zlashtirish va o‘zgartirishda faol qatnashadi. Inson va u idrok etgan olamni bog‘lovchi sifatida ishtirok etadigan til “xotirada mazkur lisoniy olam

²⁵ Хақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994. – 168 б., Шу муаллиф. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.; Шу муаллиф. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.

²⁶ Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – 37 б.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва линвопрагматикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 77 б.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва линвопрагматик тахлили. – Тошкент, 2013. – 199 б.; Мирсанов Ғ. Аспектуаллик ва темпораллик мазмуни ифодасининг когнитив-прагматик асослари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 75 б.; Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. афтореф. – Тошкент, 2018. – 72 б.; Каримова Ф. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг линвопрагматик хусусиятлари: Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 60 б.; Ҳамроева Н. Ўзбек нутқий мулоқотида фатика (илтифот мисолида). – Бухоро, 2022. – 148 б.; Сапарбаева Г. Оғзаки мулоқот акти ва унинг лексик-грамматик хусусиятлари: Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Урганч, 2021. – 63 б.; Азимова С. “Рад этиш” нутқий актларининг линвопрагматик хусусиятлари (инглиз, рус ва ўзбек тиллари мисолида): Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – 60 б.; Турдиева Ҳ. Нутқий этикет бирликларининг линвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида): Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 50 б.; Кобилов Н. Тоғай Мурод қиссаларининг линвопрагматик тадқиқи: Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2021. – 29 б.; Умурзақова М. Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг линвопрагматик тадқиқи: Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 55 б.; Юсупова Ш. Диний матнларнинг линвопрагматик тадқиқи: Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Фарғона, 2021. – 154 б.; Холмуродова М. Эркин Аъзам киноқиссалари тилининг социопрагматик аспекти: Филол фан. б. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Андижон, 2021. – 55 б.

manzarasida har bir etnomadaniy jamiyat uchun xarakterli bo‘lgan ko‘plab bilimlarni tizimlashtirish va tartibga solish uchun imkoniyat yaratadi”²⁷.

Bobning *“Pragmatik yondashuv va u bilan bog‘liq muammolar”* deb nomlangan uchinchi bo‘limida dastavval lingvopragmatikaning boshqa sohalarga munosabati, xususan, sotsiolingvistika, psixolingvistika, tabiiy fanlar falsafasi, nutqiy aktlar nazariyasi, vazifaviy sintaksis, matn lingvistikasi, diskurs tahlili, matn nazariyasi, kommunikatsiya nazariyasi kabi bir qator sohalar bilan uzviy rivojlanish barobarida o‘z navbatida ulardan farqlanishi xususida so‘z yuritilgan.

Pragmatikaning o‘rganish predmetini nutqiy faoliyatda kommunikativ maqsadni ifodalash variantlarini tanlash, shu bilan birgalikda, ifodaning mazmunini tushunishni aniqlovchi sharoitni belgilab beruvchi lisoniy va nolisoniy omillar tashkil qiladi. Lingvopragmatika tilni, avvalo, kommunikativ jihatdan, ya’ni muloqot vaziyati, nutq subyekti, nutq adresati, muloqotning maqsadi va sharoitlari nuqtayi nazaridan tadqiq etadi.

Bilamizki, “Odatda, kommunikativ vaziyatning uch asosiy unsuri mavjud bo‘ladi, ya’ni so‘zlovchi, tinglovchi va mavzu yoki axborot. So‘zlovchi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish uchun, albatta, vosita – tegishli kanalni tanlaydi. Tabiiyki, asosiy kanal tilning o‘zidir”²⁸. Matn nazariyasi bilan shug‘ullangan N.Valgina ham shunga yaqin fikr bildiradi. Uning ta’kidlashicha, “O‘zaro bog‘liq bo‘lgan triada: muallif (matn hosil qiluvchi) – matn (nutqiy fikrlash faoliyatining moddiy amalga oshishi) – o‘quvchi (interpretator) shunday hosil bo‘ladi. Shu ma’noda, matn bir vaqtning o‘zida faoliyat natijasi (muallif) va faoliyat uchun material (o‘quvchi-interpretator) bo‘ladi”²⁹.

Lingvopragmatikada³⁰ o‘rganiladigan muammolar bevosita inson omili so‘zlovchi shaxs, uning adresati, ya’ni nutq qaratilgan shaxs, so‘zlovchining tinglovchiga ta’siri, muloqot vaziyati bilan bog‘lanadi. Pragmatika biz ma’lum bir maqsadga erishish uchun qanday gaplarni qo‘llashimizni tadqiq etish bilan chegaralanmaydi, shuningdek, ifoda qo‘llanilgan mavjud sharoitni, nutqiy vaziyatni ham o‘rganadi.

Lingvopragmatika bo‘yicha bildirilgan fikrlarni jamlasak, uning tilshunoslik sohasi sifatida lisoniy belgilarning nutqda amal qilishini o‘rganishi oydinlashadi. Umuman, uning maqsadi nutqiy jarayonda – ijtimoiy munosabatlarda tilning aloqa vositasi sifatida qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganishdan iboratdir.

Mazkur bobning so‘nggi bo‘limi *“Kommunikativ niyatning namoyon bo‘lishida nutqiy aktlarning o‘rni”* deb nomlangan bo‘lib, unda til birliklarining pragmatik tabiatini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etuvchi nutqiy akt tushunchasi xususida so‘z yuritilgan. Ma’lumki, so‘zlovchi boshqa bir shaxsga biror ma’lumot yetkazish yoki undan biror ma’lumot olishda ma’lum maqsad bilan nutqiy muloqotga kirishadi. Ana shu ehtiyojni qondirish maqsadida inson turli usul

²⁷ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2005. – С. 11.

²⁸ Махмудов Н. Ўқитувчи нутки маданияти. – Тошкент, 2007. – Б. 40.

²⁹ Валгина Н.С. Теория текста. – Москва: Логос, 2003. – С. 4.

³⁰ Mavjud adabiyotlarda “pragmalingvistika”, “lingvistik pragmatika”, “lingvopragmatika” terminlari birday qo‘llanilmoqda. Shunday ekan, biz tomonimizdan ham bir tushunchani anglatuvchi mazkur terminlarning qo‘llanilishi mavzu mohiyatiga ta’sir ko‘rsatmaydi.

va vositalardan foydalanadi. Uning bu yoʻldagi harakati turli nutqiy ifodalar vositasida yuzaga chiqadi. M.Hakimov nutqiy akt xususida shunday yozadi: “J.R.Ostin, J.R.Serl va Z.Vendlerlarning nutqiy akt nazariyasi taʼlimoti taʼsirida lingvistik pragmatikaning shakllanishi uchun maʼlum asoslar yaratildi. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga koʻra soʻzlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning koʻrinishlari sifatida nutqda namoyon boʻladi. Nutqiy akt yigʻindisi nutqiy mazmuni tashkil qiladi. Soʻzlovchining munosabati esa nutqiy aktlar vositasida shakllanadi”³¹. Demak, pragmalingvistikaning soha sifatida shakllanishida ham nutqiy akt birlamchi oʻrin kasb etadi. Nutqiy aktlar nazariyasining oʻrganish obyekti bevosita tinglovchi bilan muloqot jarayonida soʻzlovchi tomonidan aytilgan gapning talaffuz qilinishidan tashkil topgan nutqiy aktlar hisoblanadi.

Badiiy matnda qoʻllanilgan nutqiy aktlar muallif kommunikativ maqsadining amalga oshirishini taʼminlashdan tashqari pragmatik taʼsir kuchini ham oshiradi. Pragmatik taʼsir sabab asarning badiiy-estetik quvvati kuchayadi. Shuning uchun matn bilan bogʻliq tadqiqotlarda asar tuzilishidagi komponentlar: soʻzlovchi – tinglovchi, adresant – adresat munosabatlarida mavzu – maqsad – nutqiy strategiya-taktika – imkoniyat – pragmatik samara muhim hisoblanadi.

Nutqiy akt maʼlum bir motiv tufayli yuzaga keladi va u, avvalo, kommunikativ maqsadning amalga oshishi uchun xizmat qiluvchi nutq ishtirokchilarini, shuningdek, muayyan nutqiy vaziyatni talab qiladi. Nutqiy aktning namoyon boʻlishi uch bosqichda amalga oshadi. Bu jarayonni ehtiyoj – taʼsir – idrok uchligi sifatida talqin qilish mumkin.

Nutqiy aktlarda bir qator, xususan, muloqotgacha boʻlgan va muloqot jarayonida ishtirok etuvchi qismlar mavjudki, aynan mana shu uzvlar muloqot jarayonining samarali kechishini taʼminlaydi. Muloqot jarayonigacha boʻlgan qismlarga kommunikativ maqsad, muloqot predmeti, nutqiy aktga boʻlgan ehtiyoj, motiv kabilar mansubdir. Kommunikativ maqsad subyektning aloqadan koʻzlangan niyati boʻlsa, muloqot predmeti nutq qaratilgan shaxs, ehtiyoj aloqa, xabar yoki taʼsir etish, motiv esa muloqot sababi sanaladi. Muloqot harakati deyilganda ikki ishtirokchi mavjudligidagi maqsadli harakat, vazifasi deyilganda aniq maqsadning belgilanishi, vositasi deyilganda muomalada qoʻllanuvchi vositalar, natijasi deyilganda pragmatik yakun tushunilishi toʻgʻridan toʻgʻri jarayon bilan bogʻliq. Tilshunoslikda bugungi kunga qadar koʻplab pragmalingvistik yoʻnalishdagi tadqiqotlarda asosan nutqiy aktlarga tayanilgan. Boʻlimda nutqiy aloqaning asosiy kategoriyalari sifatida nutqiy faoliyat, nutqiy muloqot, nutqiy akt, nutqiy vaziyat, nutqiy hodisa, nutqiy oʻzaro taʼsir, nutqiy strategiya, nutqiy taktika kabilar taʼriflangan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Badiiy matnda oʻzaro taʼsir vositalarining kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari”** deb nomlangan. Bobning *“Badiiy matnda nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari”* nomli birinchi boʻlimida badiiy matnda qoʻllanilgan til birliklarining pragmatik vazifa bajarishi, unda nutqiy aktlar muallif kommunikativ

³¹ Хақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – Б. 6.

maqsadining amalga oshirishini ta'minlashi, pragmatik ta'sir kuchini oshirishda xizmat qilishi kabilar yoritilgan.

Badiiy matnda qo'llanilgan so'z va jumalarning har biri o'z vazifasiga ega. Ular kitobxonga ma'lum voqea-hodisa, shaxslar to'g'risida ma'lumot beradi, asar personajlarining faoliyati, xatti-harakati, ichki kechinmalari bilan tanishtiradi. Shunga ko'ra, nutqiy aktlar muallif kommunikativ maqsadining amalga oshirishini ta'minlashdan tashqari pragmatik ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilishi shart. Chunki personaj nutqida qo'llanilgan har bir so'z pragmatik vazifa bajaradi, ya'ni nutq qaratilgan shaxs ruhiyatida o'zgarish hosil qiladi. O'zaro ta'sir tushunchasi lingvopragmatikada muhim o'rin tutadi. Chunki so'zlovchi yoki yozuvchi fikr ifodalaganda dastlab o'zi va tinglovchi yoki o'quvchi uchun muhim hisoblangan ma'lumotni yetkazishni va shu orqali unda ma'lum munosabat uyg'otishni maqsad qiladi. Xuddi ana shu harakat so'zlovchida til birliklarini qo'llashda mas'uliyat uyg'otadi, muloqot jarayonida qo'llanilgan til birliklari ham ma'lum darajada bo'yoqdor va ta'sirchan bo'ladi. Bu birliklar adresatda subyektiv munosabat uyg'otadi, o'z navbatida uning til lug'aviy tarkibidagi birliklardan foydalanish bilan o'z nutqiy faoliyati samaradorligiga erishish uchun harakat qilishiga turki beradi. Shuning uchun muloqot jarayonida adresant va adresat munosabati ijobiy yoki salbiy ma'no ifodalaydi. Shuningdek, bo'limda mavzu mohiyatini yoritishda Murod Muhammad Do'st asarlarining tanlanish sabablari, yozuvchining o'ziga xos individual uslubi, til birliklarini tanlash mahorati, so'z va jumalarga pragmatik vazifa yuklash bilan asar tilining jonli, ifodali va ta'sirchan bo'lishini ta'minlashi, xalq tiliga xos bo'lgan ko'plab leksik-frazeologik birliklarni badiiy adabiyotga olib kirganligi, fikrini ifodalashda o'ziga xos so'z va iboralar yaratganligi ochib berilgan.

Murod Muhammad Do'st asarlarida qo'llanilgan influktivlar emotiv baholash munosabati va emosional ta'sirni ifodalovchi nutqiy aktlar bo'lib, bunda so'zlovchi o'zining maqtov, tanbeh, xushomad, haqorat kabi ijtimoiy va insonlararo munosabatlarda yetakchilik qilishga intilishi aks etadi. Bu nutqiy aktlar Hotam sho'ro, Nazar Yaxshiboyev, Polvon, Elomonov kabi personajlar nutqlarida turli sharoitlarda, muayyan qonun-qoidalarga bo'ysunuvchi nutqiy va kategorial vaziyatlarda turli maqsadlar bilan qo'llaniladi. Shuning uchun birmuncha qiziqarli va yorqin bo'lgan nutqiy aktlar: *kechirim so'rash, istak, tabrik* kabilar *sosiativlar* namunalari sifatida, *xushomad, maqtov, tanbeh, haqorat* kabilar *influktiv* nutqiy aktlar sifatida muallif asarlarida muhim o'rin tutadi. Yozuvchi asarlarida tasvirlangan voqealar hayotdan olingan. Shu bois ularda tasvirlangan voqealar o'quvchini ishontiradi. Asarda tasvirlangan personajlar o'zaro aloqaga kirishadi, o'z munosabatini ifodalovchi til birliklarini qo'llaydi. Ana shu munosabatga bog'liq holda turli sosiativ nutqiy aktlar asar mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning "*Murod Muhammad Do'st asarlarida dialogning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari*" nomli ikkinchi bo'limida badiiy matnda personajlarning to'liq xatti-harakatlari, ichki dunyosi, ichki kechinmalari, o'y-tashvishlari, atrofdegilarga munosabati, kommunikativ maqsadi, voqelikda yuz berayotgan hodisalarga, ma'lum kishilarga, o'zi nutqiy muloqotga kirishgan

hamsuhbatiga bo‘lgan munosabati, qiziqishlarini namoyon etishda dialogik nutqning o‘rni, pragmatik yuki ochib berilgan. Dialogik nutqning kommunikativ tahlili bo‘yicha kuzatishlar olib borgan M.Saidxonovning ko‘rsatishicha, “Dialogik matn ikki shaxsning mavzuviy va mantiqiy bir butunlikni tashkil etadigan, biri ikkinchisini to‘ldirib, aniqlab, izohlab keladigan gaplar yig‘indisidan tashkil topgan bir butun nutqiy birlikdir”³².

Dialog o‘zbek tilshunosligida A.Hazratqulov³³, A.Boboyeva³⁴, E.Shodmonov³⁵, S.Xoldorova³⁶, A.Shomaqsudov³⁷ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Adabiyotshunoslikda ham dialogning o‘rni³⁸, badiiy vosita sifatida vazifalari³⁹ tadqiq etilgan, “asarlarda *dialog* ikki va undan ortiq kommunikantning o‘zaro muloqoti, tortishuvi, bir-birini inkor etuvchi turli xil e‘tiqodi va xarakterini tasvirlash”⁴⁰ munosabat ifodalash vositasi⁴¹ ekanligi ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Dialoglarda tejamkorlikka amal qilish to‘liqsiz gaplarning qo‘llanishiga sabab bo‘lishi tahlil qilingan⁴². Badiiy matnlarda, xususan, Murod Muhammad Do‘st asarlari tilida personajlar nutqining o‘ziga xosligini ta‘minlovchi, ularning ta‘sirchanlik kuchini oshiruvchi kommunikativ-pragmatik vositalar sirasida dialoglarning ham o‘ziga xos o‘rni bor.

Dialoglarda aloqaga kirishiladi, tinglovchiga ma‘lum voqea-hodisa, shaxslar to‘g‘risida ma‘lumot yetkaziladi, o‘z navbatida suhbat mavzusidan kelib chiqib, ta‘sir o‘tkaziladi. Shundan ham ko‘rinadiki, so‘zlovchi muloqotga kirishish bilan tinglovchiga ta‘sir o‘tkazishga harakat qiladi. Ularning barchasi zamirida illokutiv akt, ya‘ni so‘zlovchi maqsadi yotadi. Misol sifatida M.M.Do‘stning “Lolazor” romanidan olingan quyidagi dialogik muloqot aks etgan parchaga diqqat qilaylik:

Maslahat: *Rais dardini gapirgani sayin jo‘nlashib, tuppa-tuzuk odamga aylandi-qoldi.*

– *Kasalni tuzating-u, boshqa buyoqlarga kelmang, – deya maslahat berdi Yaxshiboyev. – O‘rganib qolsangiz yomon bo‘ladi.*

³² Saidxonov M. Диалогик нутқнинг коммуникатив таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – №2. – Б. 71.

³³ Ҳазратқулов А. Диалогическая речь в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – 32 с.

³⁴ Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1968. – 158 б.

³⁵ Шодмонов Э. Слова-предложения в современном узбекском языке. Дисс ... канд. филол. наук. Ташкент, 1970. – 230 с.

³⁶ Халдарова С.М. Семантико-структурные особенности диалогической речи в современном языке: Автореф... дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1974. – 62 с.

³⁷ Шомақсудов А. Сўзлашув стили. Ўзбек тили стилистикаси масалалари. – Тошкент, 1972. – 37 б.

³⁸ Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. – Т.: Ёш гвардия, 1973. – 191 б.

³⁹ Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т., 1979. – 361 с.

⁴⁰ Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли. Филол. фан... номз... дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 13.

⁴¹ Лафасов Ў. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1996. – 174 б.

⁴² Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1968. – 158 б.

Taklif: – *E, o‘zimizda ham shu niyat, domlajon, – dedi rais. – Tuzalib olay, qaytib qorani ko‘rsatmaymiz. Lekin, bizniki quruq manzirat emas, domlajon, chin ko‘ngildan aytdik, adresni qoldirsak, bir mehmon bo‘p borasiz.*

Istak: – *Nasib etsa, – dedi Yaxshiboyev. – Bu yerlardan eson-omon chiqsak.*

Maqto‘v: – *E, sizki shu gapni aytgandan keyin... – deya ranjidi rais. – Qarang domlajon, mendan zo‘rroqsiz, qirchillama yigitsiz!..*

Yuqoridagi matnda Yaxshiboyev va Choriboy o‘rtasidagi suhbat jarayoni aks etgan. Suhbat jarayonida qo‘llanilgan nutqiy aktlar nutqiy vaziyat va dialog ishtirokchilari munosabatlarining holatiga ko‘ra o‘zgarib turadi. Yuqoridagi parchada suhbat mavzusiga qarab maslahat, taklif, istak, maqto‘v nutqiy aktlari qo‘llanilgan. Dastlabki maslahat nutqiy akti Nazar Yaxshiboyevga tegishli. Keyingisi esa raisga tegishli bo‘lib, u Yaxshiboyevni ma‘lum bir harakatni bajarishga undashga xizmat qilgan. Suhbat yakunida esa istak va maqto‘v mazmunidagi gaplar berilgan. Ko‘rinadiki, dialoglarda suhbat mavzusi personajlarning turli ruhiy holatga tushishi, hissiyotga berilishi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Masalan, Yaxshiboyev nutqidagi sog‘liqdan shikoyat qilish, sog‘ayib ketishga ishonchsizlik nutqiy akti Choriboy nutqiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Uning gaplarida Yaxshiboyevning fikrlarini ma‘qullamaslik, norozilik sezilib turadi.

Murod Muhammad Do‘st asarlari personajlari nutqi haqida fikr yuritganda badiiy matnlarda dialogning pragmatik vazifasi, ma‘noviy yuki to‘g‘risida kuzatishlar olib borgan L.P.Kochetovning mulohazalariga tayangan holda quyidagicha xulosalarga kelish mumkin: Yozuvchi asarlaridagi, avvalo, “Dasht-u dalalarda” hikoyasida Polvon va Salim saqich; “Lolazor” romanida Yaxshiboyev va Mamatqulov, Zohid; Hotam sho‘ro va mulla G‘affor hamda boshqa obrazlar o‘rtasida kechgan muloqotlarda personajlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning keskinlashuvi, nutqiy aktlarning almashinuvi personajlar nutqiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

Ikkinchi bobning “*Murod Muhammad Do‘st asarlarida monologning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari*” nomli uchinchi bo‘limida monolog badiiy nutqdagi pragmatik ta‘sir etish vositasi sifatida ko‘p qo‘llanilishi xususida so‘z yuritilgan. Murod Muhammad Do‘st asarlarida boshqa vositalar qatori monologik nutqdan ham foydalanilgan. Monologni badiiy asarda personajning o‘ziga yoki boshqaga nisbatan aytilgan nutqini o‘zida aks ettirgan komponenti sifatida belgilash mumkin. Monologning badiiy matnda qo‘llanilishi uchun ko‘pincha maxsus tashkillashtirilgan vaziyat talab qilinadi. Murod Muhammad Do‘st asarlarida personajlar xarakter-xususiyatlarini ochib berishda shu usul tanlangan. Murod Muhammad Do‘st asarlari misolida aytish mumkinki, badiiy asarda monolog hajmining turlicha bo‘lishi, ya‘ni kichik yoki katta hajmda bo‘lishi aniq chegaralanmagan. Ayrim asarlar yaxlit holda monolog shaklida bo‘lishi ham mumkin. Shuningdek, monologlar lug‘aviy tarkibining turlicha ekanligi bilan o‘zaro farqlanib turadi.

Quyidagi parchada “Lolazor” romani qahramoni Nazar Yaxshiboyevning atrofdagilarga, o‘zini o‘rab turgan kishilarga munosabati shu yo‘l bilan ochib berilganligini ko‘ramiz:

*Rostdan ham qo‘rqoq edimmi? Balki, bu shunchaki uyatchanlikdir? Ibodir? Lekin, ibo deb atasak... keyinchalik... o‘zgaralar bilan... **mushukday miyovlaganlarim-chi?**.. To‘g‘ri, keyinchalik Muhsinaning ko‘nglidagi o‘t so‘ndi: avval Avvalbek tug‘ildi, keyin – Olloyor, keyin – Sokina, eng baqiroq, eng sho‘x, endilikda eng bama‘ni va eng suyuqli farzandim... Lekin unda Oliyaga chalg‘ib, yo‘q, chalg‘ib emas, Oliyani suyib, Muhsinaning nazdida **sassiq takaga** aylandimki, bugun farzandlar sarvari bo‘lmish Avvalbek ayni unvondan o‘zgasiga ravo ko‘rmaydir.*

Yuqorida keltirilgan matnda qo‘llanilgan “*mushukday miyovlamoq*”, “*sassiq taka*” birliklariga pragmatik vazifa yuklangan. “*Mushukday miyovlamoq*” iborasi personajning yoshligi, ayni kuchga to‘lgan, ehtirosli yoshligiga ishora qilayotgan bo‘lsa, “*sassiq taka*” metaforik obraz” darajasida personajning o‘zini o‘zi baholashini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, bunda personajning keksayib, hech kimga keraksiz bo‘lib qolganligi ma‘nosi ham anglashilib turibdi. “*bugun farzandlar sarvari bo‘lmish Avvalbek ayni unvondan o‘zgasiga ravo ko‘rmaydir*” deb keltirilishi ham so‘zlovchining o‘zini o‘zi baholashida pragmatik mazmuni yanada kuchaytirmoqda.

Monologda Yaxshiboyevning voqealarni teran ko‘z bilan tahlil qilishi, oila a‘zolari va yaqinlari bilan sodir bo‘lgan voqealarda har bir ishtirokchining tutgan o‘rniga aniq baho berishi o‘z aksini topgan. Ayniqsa, uning xotini va o‘g‘li harakatlariga baho berishda haqorat ifodalovchi leksemalardan foydalanishi monologdagi badiiy tasvirni yanada kuchaytirgan. Monologda so‘zlovchining tasvirlanayotgan voqealarga shaxsiy munosabati muhim o‘rin tutadi. Murod Muhammad Do‘st shu o‘rinda matn mazmunining jonli va ishonarli chiqishini ta‘minlash maqsadida yana bir vositaga – adabiy tilda uchramaydigan ko‘rinish, ya‘ni og‘zaki so‘zlashuv tilida qo‘llaniladigan birliklardan foydalanishga harakat qilgan. Nutqiy muloqot jarayonida monologlar so‘zlovchining ichki kechinmalari, maqsadi, atrofdagi kishilarga ochiq-oshkora ayta olmaydigan yashirin istaklarini ifodalab, asar muallifining monologdan foydalanishdan ko‘zlagan asosiy maqsadi yuzaga chiqishi uchun zamin yaratadi. Badiiy matnlarda nutqiy muloqotning monolog shaklidan foydalanish zamirida muallifning pragmatik maqsadi yotadi. Muallif tomonidan tanlangan til birligi, nutq shakllari, albatta, badiiy matnda ma‘lum bir pragmatik vazifa bajarishi lozim.

Dissertasiyaning uchinchi bobi “**Murod Muhammad Do‘st asarlarida kommunikativ-pragmatik mazmuni kuchaytiruvchi vositalar**” deb nomlangan. Bobning “*Murod Muhammad Do‘st asarlarida nutqiy taktika*” nomli birinchi bo‘limida nutqiy strategiya va nutqiy taktikaning badiiy matndagi kommunikativ maqsad va vaziyatni oydinlashtirishdagi roli xususida so‘z yuritilgan. I.V.Trufanov kommunikativ strategiyani “nutqiy harakatlar jamlanmasi” sifatida talqin qiladi⁴³. M.Makarova “Diskurs nazariyasi asoslari” kitobida strategiyaning so‘zlovchi qarorlari zanjiri, uning ma‘lum kommunikativ harakatlar va lisoniy vositalarni tanlashi ekanligini asoslashga harakat qilgan⁴⁴.

⁴³ Труфанов И.В. О разграничение понятий: речевой акт, речевой жанр, речевая стратегия, речевая тактика. Филологические науки. – М., 2001. – №3. – С. 58.

